

## O'ZBEKISTONDA BOLALAR TRAFFIKINGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12199674>

**Isroilov Mutallif**

*katta o'qituvchi*

*Guliston davlat universiteti, O'zbekiston*

[mutallif.isroilov@mail.ru](mailto:mutallif.isroilov@mail.ru)

### **Annotatsiya**

*Maqolada bolalar savdosi, xususan chaqaloqlar savdosi muammosi o'rganilgan. Afsuski, mazkur jinoyat ham transmilliy, ham ichki ko'rinishda ko'plab mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham bugungi kungacha sodir etilmoqda. Unga qarshi kurashishda mahalliy mutasaddi tashkilotlar, mahalla, jamoatchilik hamkorlik qilishlari kerak. Har bir mahallada ayollarning oilaviy ahvoli o'rganilishi kerak.*

### **Kalit so'zlar**

*odam savdosi, chaqaloqlar savdosi, jinoyat, Milliy komissiya, jabrdiydalar, ijtimoiy himoya, moddiy ehtiyoj.*

## ДЕТСКИЙ ТРАФФИКИНГ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Исроилов Муталлиф**

*старший преподаватель*

*Гулистанский государственный университет, Узбекистан*

[mutallif.isroilov@mail.ru](mailto:mutallif.isroilov@mail.ru)

### **Аннотация**

В статье рассматривается проблема торговли детьми, особенно торговля младенцами. К сожалению, это преступление совершается как на транснациональном, так и на внутреннем уровне во многих странах, в том числе и в Узбекистане. В борьбе с этим должны сотрудничать местные власти, районы, общины. Следует изучить семейное положение женщин в каждом районе.

### **Ключевые слова**

*торговля людьми, торговля младенцами, преступление, Национальная комиссия, жертвы, социальная защита, материальная потребность.*

## CHILD TRAFFICKING IN UZBEKISTAN

**Isroilov Mutallif**

*senior teacher*

*Gulistan State University, Uzbekistan*

[mutallif.isroilov@mail.ru](mailto:mutallif.isroilov@mail.ru)

### **Abstract**

The article discusses the problem of child trafficking, especially the trafficking of infants. Unfortunately, this crime is committed both at the transnational and domestic level in many countries, including Uzbekistan. Local authorities, districts, and communities must cooperate in the fight against this. The marital status of women in each district should be examined.

### **Key words**

*human trafficking, trafficking in babies, crime, National Commission, victims, social protection, material need.*

**Kirish.** Odam savdosi muammosi O'zbekiston Respublikasi uchun ham, butun dunyo hamjamiyati uchun ham dolzarbligicha qolmoqda. Bu jinoiy faoliyatning doimiy rivojlanib borayotgan transmilliy turi bo'lib, katta daromad keltiradi va daromadlilik bo'yicha jinoiy dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi. Xalqaro migratsiya tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 21 milliondan 36 milliongacha odam savdosi qurbanlari bor. Bir qator xalqaro tashkilotlar inson savdosi jinoiy daromadlar bo'yicha dunyoda 3-o'rinni egallagan degan eskirgan reytingni qayta ko'rib chiqish zarurligi haqida fikr bildirmoqda, chunki yiliga 32 milliard AQSh dollari aylanmasi bilan u allaqachon qurol-yarog' savdosidan oshib ketgan va giyohvand moddalar savdosiga juda yaqin bo'lib qoldi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston olimlari tomonidan bolalar savdosi, xususan yangi tug'ilgan chaqaloqlar savdosi masalasi ilmiy adabiyotlarda maxsus yoritilmagan. Bu masala odatda odam savdosi haqidagi tadqiqotlarda, maqolalarda hamda Internet va OAV xabarlarida biroz ochib beriladi. Rossiyalik olimlardan I.V.Lapin, G.V.Chebotareva va boshqalar surrogat onalikni Rossiyadagi huquqiy tartibga solish masalasini tahlil qilgan [1: 2]. Aytish kerakki, Internetda mazkur masala yuzasidan xalqaro tashkilotlarning yillik hisobotlari bilan tanishish mumkin. Masalan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT) saytida jahon miqyosida bolalar savdosiga oid materiallar bilan tanishish mumkin [11].

Yoki Odamlar savdosi bilan kurash bo'yicha Yevropa Kengashining ekspertlar guruhi (GRETA) har yili hisobot beradi va press-relizlarini saytiga joylashtiradi. Ekspertlarning ta'kidlashicha, bolalar transmilliy miqyosda, balki mamlakatlar ichida ham ekspluatatsiyaning turli shakllari, jumladan, jinsiy ekspluatatsiya, majburiy mehnat, uy qulligi, majburiy tilanchilik, jinoiy huquqbazarliklarda majburiy ishtirok etish va majburiy nikoh uchun sotiladi [9]. Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston OAVda ham chaqaloqlar savdosi bilan bog'liq holatlar haqida xabarlar keltirilgan. Masalan, Moskvada joriy yil fevralida chaqaloqlar savdosi bilan bog'liq jinoyat aniqlangan [7]. Chaqaloqlar savdosi muammosi jamoatchilik tomonidan muhokama qilingan [4; 5]

**Muhokama va natijalar.** 2020 yil 17 iyun kuni Oliy Majlis Senatining raisi, Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurash bo'yicha Milliy komissiyaning raisi Tanzila Narbayeva odam savdosi bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar orasida 43 % chaqaloqlar savdosiga to'g'ri keladi, degan edi va quyidagi ma'lumotlarni keltirdi: Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida chaqaloqlarni sotish bo'yicha 5-tadan holat, Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari va Toshkent shahrida - 4-tadan holat, Samarqand, Farg'ona, Namangan, Andijon, Navoiy viloyatlarida - 3-tadan holat qayd etilgan. 2019 yilda bunday jinoyatlarni 72 shaxs sodir etib, ulardan 62 tasi ayollardir (86%). Sabablar o'rganilganda ma'lum bo'ldiki, 19-ta holat oiladagi og'ir sharoitlar bilan, 3-ta holat uy-joy sotib olish maqsadida, 9-ta holat o'z aybini yashirish maqsadida, 10-ta holat moddiy manfaatdorlik tufayli. T.Narbayevaning ta'kidlashicha, chaqaloqlar savdosiga oid jinoyatlardagi ishtirokchilarning uchdan bir qismi (32%) - meditsina xodimlaridir. Odamlar savdosida nafaqat ayol yoki faqat bitta kishi aybdor, balki tegishli shart-sharoitlarni yaratib bergen, bu jinoyatni sodir etishga rag'batlantirgan muhit ham aybdordir. Shuning uchun, muammoga boshqacha yondashib, aholining, ayniqsa xotin-qizlarning uydagi sharoitlarini o'rganish zarur [8].

Markaziy Osiyodagi yangiliklar bilan tanishtiruvchi "Mediazona" saytida har yili O'zbekistonda yangi tug'ilgan chaqaloqlarni sotish holatlari aniqlanayotganini yozgan. Chaqaloqlar evaziga kvartira, mashina yoki pul talab qilishadi. Ko'pincha chaqaloqlarni o'z onalari sotishadi, ayrim hollarda boshqa vositachilar va hatto tug'ruqxona xodimlari jalg qilinadi. Traffiking bilan bog'langan yangi tug'ilgan chaqaloqlarni sotishning sabablari, Milliy komissiya va IIVning ta'kidlashicha, kambag'allik va nikohsiz homiladorlikni yashirish istagidan iborat. Chaqaloqlar 200 dollardan to 20 ming dollargacha pullanadi. Ma'lumotlarga qaraganda, chaqaloqlar va yoshi kattaroq bo'lgan bolalar orasida traffikning qurbanlari bo'lganlarni soni quyidagicha (jadvalda faqat aniqlanganlar soni ko'rsatilgan) [3]:

Yillar	Chaqaloqlar soni	Yosh bolalar soni
2014	39	25 o'g'il va 28 qiz
2015	42	27 o'g'il va 23 qiz
2016	53	34 o'g'il va 23 qiz
2017	61	48o'g'il va 24 qiz
2018	41	Ma'lumot yo'q
2019	35	Ma'lumot yo'q

2020-yilning 9-noyabr kuni Sirdaryo viloyati IIB TEQKB Odam savdosi va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish bo'limi xodimlari tomonidan Xovos tumani hududida tezkor tadbir o'tkazilgan. Tadbir davomida Mirzaobod tumanida yashovchi fuqaro I.S. hamda Xovos tumanida yashovchi fuqaro N.Sh. bilan o'zaro til biriktirib, fuqaro I.S.ning 4 kunlik qiz farzandi I.K.ni Guliston shahrida yashovchi S.Z.ga 20 ming AQSh dollariga sotayotgan vaqtida tadbir ishtirokchilari tomonidan qo'lga olingan. Avvalroq Xivada 4 oylik qizini 120 mln so'mga sotmoqchi bo'lgan ayol, hamda Termizda 2 yoshli o'g'lini 50 mln so'mga sotmoqchi bo'lgan erkak qo'lga olingani haqida xabar berilgandi [6].

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Tergov departamenti mas'ul xodimi Nargiza Hojiboyevaning qayd etishicha, mamlakatda chaqaloqlar savdosiga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda [12]:

- bolaning onasi ijtimoiy himoyalanmagani va moddiy ehtiyojlari ta'minlanmaganligi;
- turmushga chiqmagan ayollar homilador ekani hamda chaqaloqni oilasidan yashirishga urinishi;
- farzand ko'rmagan oilalar tomonidan chaqaloq asrab olishga ehtiyoj mavjudligi;
- chaqaloq savdosining oldini olishga qaratilgan mukammal huquqiy asosning yo'qligi.

"Chaqaloq savdosi bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati xotin-qizlar tomonidan sodir etilayotgani juda ayanchli holat. Ushbu jinoyatga qo'l urgan xotin-qizlarning ijtimoiy holati o'rganilganda, ularning ko'pchiligi bugun og'ir turmush sharoitida va moddiy qiyinchilikda yashayotgani, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda psixologik yordamga muhtojligi aniqlandi", deydi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi boshqarma boshlig'i o'rribosari O'g'iloy O'rozova [12].

**Xulosa va tavsiyalar.** Jurnalistlar Janna Raximova va Samrin Mamedova bolalar traffikingi mavzusida o'z izlanishlarini olib borishdi va quyidagi so'rovnomani o'tkazib, natijalarni joylashtirishdi [5]:

*Davlat bolalar savdosi muammosini qanday hal qilishi mumkun degan savolga quyidagi javoblar olingan:*

mamlakatdagi iqtisodiy ahvolni yaxshilash – 23,9%;  
asrab olish va vasiylik tartibini osonlashtirish – 18,2%;  
maktablarda jinsiy tarbita va inson huquqlarini o'qitish – 14,6%;  
ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va onalar kapitali – 8,8%;  
sotishga urinishlar uchun jazoni kuchaytirish – 7,1%;  
tug'ruqxonalarda qattiq nazorat o'rnatish – 6,4%;  
jamiyatda xotin-qizlarga munosabatni o'zgartirish – 6,2%;  
ayyollar huquqlari va bolalar himoyasiga ko'proq e'tibor ajratish – 5,7%;  
bolalar tug'ilishi va yangi chaqaloqlarni qayd qilinishini nazorat qilish – 5,4%;  
fuqarolar mas'uliyatini oshirish – 2,1%;  
bebi-bokslarni joriy etish -

Bolalar savdosi deganda voyaga yetmagan shaxsni sotib olish va sotish, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan boshqa bitimlar, shuningdek ekspluatatsiya qilish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki olish tushuniladi.

Bolalarni ekspluatatsiya qilish - voyaga yetmaganlarning fohishalikdan foydalanishi va jinsiy ekspluatatsiyaning boshqa shakllari, voyaga yetmaganlarning qul mehnati (xizmatlari), voyaga yetmaganlarning qulligi, voyaga yetmaganlarning a'zolari va (yoki) to'qimalarini qonunga xilof ravishda olib qo'yishi, voyaga yetmaganni g'ayriqonuniy ravishda asrab olishi.

"Afsuski, zararli amaliyotlar (masalan, erta turmush qurish), tug'ilganlik haqidagi guvohnomaning yo'qligi, ta'lim va / yoki sog'liqni saqlash muassasalariga kirish imkoniyati cheklanganligi va turli xil inqirozli vaziyatlarda butun dunyo bo'ylab bolalarning farovonligini xavf ostiga qo'yish davom etmoqda. UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, "(bolalar) savdosi holati qachon yuzaga kelsa, natijasida bolaning himoya muhiti vayron bo'ladi, ziddiyat, mahrumlik yoki kamsitish ko'rinishlari sodir bo'ladi" [10].

Xullas, bugungi globallashuv davrida odam savdosi, jumladan, bolalar va chaqaloqlar savdosiga qarshi kurashni davom ettirib, tegishli qonunchilik hujjalariha o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, jinoyatni sodir etganlarga nisbatan jazo choralarini kuchaytirish, joylarda aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish zarur.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Лапин И.В. Торговля людьми и суррогатное материнство: проблема разграничения // Вестник Московского университета. Серия 11. Право. – 2021. - №4. – С. 101-114.
2. Чеботарева Г.В. Проблемы правового регулирования суррогатного материнства и торговля людьми.// Ученые записки Крымского федерального университета им В.И.Вернадского. Юридические науки. – 2022.- Т.8 (74), №1. – С. 188-197.
3. Куанова М. Безысходность на фоне высокого спроса: кто, почему и за сколько продает детей в Узбекистане. 2020 г. 12 ноября // <https://mediazona.ca/article/2020/11/12/spros>
4. «Продаётся младенец. Недорого». Как и почём в России продают новорожденных (ВИДЕО) 17 мая 2023. <https://newizv.ru/news/2023-05-17/prodayotsya-mladenets-nedorogo-kak-i-za-skol-v-rossii-prodayut-novorozhdennyh-video-407620>
5. Продать нельзя оставить: почему дети становятся «товаром» и как с этим бороться? <https://anhor.uz/vzglyad-iznutri/24520-2/>
6. Sirdaryoda to'rt kunlik chaqalog'ini 20 ming dollarga sotayotgan ayol qo'lga olindi <https://daryo.uz/2020/11/10/sirdaryoda-tort-kunlik-chaqalogini-20-ming-dollarga-sotayotgan-ayol-qolga-olindi/>
7. Столичный СК сообщил о выявлении новых случаев торговли детьми <https://www.vedomosti.ru/society/news/2024/02/07/1019029-sk-o-viyavlenii-torgovli-detmi>
8. Треть соучастников в торговле младенцами – медработники – Танзила Нарбаева <https://www.gazeta.uz/ru/2020/06/18/child-trafficking/>
9. Торговля детьми: эксперты подчеркивают широко распространенные проблемы [https://www.coe.int/ru/web/portal/news-2017/-/asset\\_publisher/StEVosr24HJ2/content/trafficking-of-children-experts-highlight-widespread-problems](https://www.coe.int/ru/web/portal/news-2017/-/asset_publisher/StEVosr24HJ2/content/trafficking-of-children-experts-highlight-widespread-problems)
10. «Торговля детьми и лучшие интересы ребенка». 3-4 апреля 2017. Вена. Концептуальная записка. Бюро специального представителя и Координатора по борьбе с торговлей людьми ОБСЕ <https://www.osce.org/files/f/documents/9/c/307371.pdf>
11. Торговля детьми и защита несовершеннолетних: Обеспечение защиты прав и удовлетворения потребностей детей, пострадавших от торговли людьми, в рамках существующих механизмов защиты детей <https://www.osce.org/ru/cthb/413021>

12. Ўзбекистонда 2017 – 2020 йилларда чақалоқ савдоси билан боғлиқ 185 та ҳолат аниқланган <https://daryo.uz/k/2021/01/07/ozbekistonda-2017-2020-yillarda-chaqaloq-savdosibilan-bogliq-185-ta-holat-aniqlangan>